O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

LEKSIKANI O‘QITISHDA AUTENTIK MEDIA MATNLARNING MOTIVATSION VA KOMMUNIKATIV IMKONIYATLARI

Azimova Dilfuza Jamoldin qizi

Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, magistrant.
e-mail: azimovadilfuza712@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0006-7388-4208

Annotatsiya.

Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy glottodidaktika va lingvodidaktikaning dolzarb muammolaridan biri — chet tili darslarida leksikani o‘qitish samaradorligini oshirishda autentik media matnlarning o‘rni hamda ularning motivatsion va kommunikativ imkoniyatlari tizimli-pedagogik va diskursiv jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot doirasida zamonaviy elektron ommaviy axborot vositalari va multimedia resurslaridagi autentik matnlar o‘rganilib, ularning talabalarning kognitiv faolligini oshirish hamda nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Mediadiskurs birliklarining lingvopragmatik tabiati, til tizimidagi lisoniy tejamkorlik tamoyillari hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish qonuniyatlari zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktik yondashuvlar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari chet tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, sohaviy lug‘atlarni boyitish hamda darsliklar uchun o‘quv materiallarini tanlash jarayoniga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: autentik materiallar, media matn, leksikani o‘qitish, lingvodidaktika, motivatsion imkoniyatlar, kommunikativ kompetensiya, kognitiv faollik, mediadiskurs, lisoniy muhit, jonli muloqot, nutqiy faoliyat, integratsiyalashgan ta’lim, til iqtisodiyoti, bosqichma-bosqich tizim, darajali aloqalar.

МОТИВАЦИОННЫЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ АУТЕНТИЧНЫХ МЕДИАТЕКСТОВ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ

Азимова Дилфуза Жамолдин кизи

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхокхона Ибрата, магистрант.

Аннотация.

В данной научной статье в системно-педагогическом и дискурсивном аспектах исследуется одна из актуальных проблем современной глоттодидактики и лингводидактики — роль аутентичных медиатекстов в повышении эффективности обучения лексике на занятиях по иностранному языку, а также их мотивационный и коммуникативный потенциал. В рамках исследования рассматриваются аутентичные тексты современных электронных средств массовой информации и мультимедийных ресурсов, анализируются их функциональные особенности в повышении когнитивной активности студентов и формировании речевых навыков. Лингвопрагматическая природа единиц медиадискурса, принципы языковой экономии и закономерности развития коммуникативной компетенции студентов освещаются на основе современных лингвистических и лингводидактических подходов. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования методики преподавания иностранных языков, обогащения специализированной лексики и отбора учебных материалов для учебников.

Ключевые слова: аутентичные материалы, медиатекст, обучение лексике, лингводидактика, мотивационный потенциал, коммуникативная компетенция, когнитивная активность, медиадискурс, языковая среда, живое общение, речевая деятельность, интегрированное обучение, языковая экономия, поэтапная система, уровневые связи.

MOTIVATIONAL AND COMMUNICATIVE POTENTIAL OF AUTHENTIC MEDIA TEXTS IN VOCABULARY TEACHING

Azimova Dilfuza Jamoldin qizi

Is'hoqxon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages, Master's Student.

Abstract.

This article examines, from systemic-pedagogical and discourse perspectives, one of the current issues in modern glottodidactics and language pedagogy: the role of authentic media texts in improving the effectiveness of vocabulary teaching in foreign language classes, as well as their motivational and communicative potential. The study explores authentic texts from contemporary electronic mass media and multimedia resources and analyzes their functional characteristics in enhancing students' cognitive engagement and developing their language skills. The linguopragmatic nature of media discourse units, the principles of linguistic economy, and the patterns of developing students' communicative competence are examined through contemporary linguistic and language-teaching approaches. The findings can contribute to improving foreign language teaching methodology, enriching specialized vocabulary, and selecting appropriate instructional materials for textbooks.

Keywords: authentic materials, media text, vocabulary teaching, language pedagogy, motivational potential, communicative competence, cognitive engagement, media discourse, language environment, authentic communication, language activity, integrated learning, linguistic economy, step-by-step system, level-based relationships.

Kirish. Globallashuv va madaniyatlararo muloqotning shiddatli rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimi, xususan, chet tillarini oʻqitish metodikasi oldiga mutlaq yangi va yuqori talablarni qoʻymoqda. Chet tilini oʻrganish jarayonida leksik qatlam til tizimining qurilish asosi, nutqiy faoliyatni harakatga keltiruvchi bosh mexanizm hisoblanadi. Leksik birliklarni talabalar ongiga shunchaki statik, sun'iy matnlar yoki lugʻat soʻzligi shaklida singdirish bugungi kun talablariga javob bermay qoʻydi. Shu sababli zamonaviy lingvodidaktikada leksikani jonli, dinamik va hayotiy vaziyatlar asosida oʻqitish, ta'lim jarayoniga chet tilida soʻzlashuvchi jamiyatning real voqeligini aks ettiruvchi materiallarni olib kirish eng dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda [2, 45-b.]. Ushbu muammoni hal etishda autentik mediamatnlar, ya'ni dastlab ta'limiy maqsadlar uchun emas, balki jonli jamiyat muloqoti uchun yaratilgan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron yangiliklar va multimedia resurslarining matnlari eng samarali vosita sifatida maydonga chiqadi [1, 12-b.]. Autentik mediamatnlar talabalarga til oʻrganilayotgan mamlakatning madaniy, ijtimoiy va lingvistik muhitini sun'iy toʻsiqlarsiz his qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xususan, chet tillarini oʻqitishda autentik materiallar va mediadiskurs masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro miqyosda oʻrganila boshlangan. Quyidagi gʻarb olimlari: D. Crystal, S. C. Herring, G. Stockwell, M. G. Moore, G. Kearsley, D. R. Garrison, H. Kanuka, M. J. Rosenberg, G. Siemens, C. R. Graham, B. J. Beatty, S. Hrastinski, H. G. Widdowson autentik matnlarning tabiati, kompyuter vositachiligidagi diskurs, tarmoqli muloqot va axborot texnologiyalarining oʻqitish uslublariga ta'siri borasida izlanishlar olib borishgan. Oʻzbek tilshunosligi va lingvodidaktikasida esa H. Dadaboyev, Z. Sodiqov, O. Yusupov, N. Mahmudov kabi tilshunos olimlar sohaviy atamalarning tizimli tabiati, internet diskursining shakllanishi, til va madaniyat mutanosibligi hamda chogʻishtirma tilshunoslikning turli tomonlari tahlili yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chet tili leksikasini oʻqitishda autentik mediamatnlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari birinchi marta monografik nuqtayi nazardan nufuzli glottodidaktik tadqiqotlarda taqdim etilgan [1, 12-b.]. Bunday yondashuvning ta'kidlashicha, "asosida til iqtisodiyoti va kommunikativ ehtiyojni ta'minlaydigan hodisa sifatida autentik matnlar motivatsion va pragmatik jihatdan muhim oʻrin tutadi". D. Crystal ta'kidlaganidek, internet va raqamli OAV muhiti zamonaviy til taraqqiyotiga eng kuchli ta'sir oʻtkazuvchi dinamik omildir [2, 45-b.]. S. C. Herring esa kompyuter vositachiligidagi muloqot tizimlarining oʻziga xos tasnifiy mezonlarini koʻrsatib, tarmoqli diskursning interaktiv tabiatini asoslagan [5, 5-b.].

Boshqacha qilib aytganda, til oʻrganish tamoyilining tilda har qanday qatlamda namoyon boʻlishi talabaning kognitiv faolligini belgilab bermaydi, balki ellipsis faqat nutqiy vaziyatlarga xosdir. M. G. Moore va G. Kearsley virtual muhitda ta'lim resurslarining tizimli va motivatsion xususiyatlarini yoritishgan [7, 32-b.]. M. J. Rosenberg esa elektron oʻqitish strategiyalarini tadqiq etib, raqamli kontentning kommunikativ xarakterini koʻrsatgan [8, 18-b.]. Ushbu olimlarning qarashlari orqali autentik mediamatnlarni faqat statik matn sifatida emas, balki jonli nutqiy harakat sathida tahlil etishimizni, unga nisbatan metodik chegaralar tortilishini koʻrishimiz mumkin. Masalaning darslik tushunchalariga nazar tashlasak, oʻzbek tilida soʻzlarda qisqaruv tushunchasi, uning lingvistik tadqiqi, shuningdek, tushib qolish hodisasi tadqiqi ham amaliyotga tatbiq qilingan. Xususan, qisqaruv hodisasining soʻzlarda namoyon boʻlishi, til birligining ma'lum

bir komponentining tushib qolishi, til tejamkorligi prinsiplari, fonetik, morfologik, grammatik qisqaruv xarakterlari H. Dadaboyev tomonidan tizimli ravishda tahlilga tortilgani ma'lum bo'ladi [3, 84-b.]. G. Siemens esa konnektivizm nazariyasi orqali raqamli asrda bilimlar uzatilishi va o'quv materiallarining tarmoqli aloqalarini ko'rsatib o'tgan [9, 3-b.].

Ushbu tadqiqotlarda tilning ichki derivatsion imkoniyatlaridan foydalanish tushunchasini o'rganish va tahlil qilish natijasida, "tushib qolish hodisasi"ni so'zlar yoki tovushlardagina emas, balki matn tarkibida, xususan, jumlada so'z turkumlarining biri, hattoki, butun bir gapning o'zi tushib qolishi hamda uning lingvistik jihatlari va kommunikativ funksiyalari ustida ish borish ahamiyati kengayib boradi. Z. Sodiqov o'zbek tili internet diskursining shakllanish bosqichlarini o'rganib, raqamli matnlarning sotsiolingvistik va uslubiy xususiyatlarini yoritgan [10, 42-b.]. Shundan so'ng, yana bir o'zbek izlanuvchisi Jasurbek Ibragimov ommaviy axborot vositalari va mediadiskurs matnlarining o'ziga xos lisoniy tabiati hamda funksional imkoniyatlarini mukammal tarzda tadqiq etgan [6, 34-b.]. Uning "OAV matnlari diskursining lingvopragmatik va lingvodidaktik xususiyatlari" nomli turkum ilmiy ishlari mediamatnlarning talabalar hissiy-kognitiv faolligiga va leksikani o'zlashtirish darajasiga bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biridir. Ushbu ishlarda muallif mediamatnlar shunchaki axborot manbasi emas, balki eng so'nggi neologizmlar va jonli nutqiy qoliplarni o'zida jamlagan dinamik lingvistik makon ekanligini, ulardan foydalanishning bosqichma-bosqich tizimlarini va bu jarayonning o'zbek tili kesimida qo'llanilishi masalalarini uslubiy va funksional jihatdan chuqur tahlil qilgan hamda jahon metodikasining ilg'or tamoyillarini milliy ta'limga tatbiq etishga uringan.

O'zbek tili kesimida ushbu hodisa yanada kengroq aspektda tilshunos olimalar D. N. Satimova va N. V. Ashurovalarning substandart nutqiy qatlamlar, til iqtisodiyoti hamda sintaktik sathdagi qisqarishlar qonuniyatlariga bag'ishlangan parallel ilmiy tadqiqotlarida tilshunoslikda tejamkorlik tamoyillari bilan qayta o'rganildi [11, 20-b.; 14, 23-b.]. D. N. Satimova raqamli va jonli mediamatnlarning pragmatik tabiati talabalar nutqini o'stirishda kuchli motivatsion turtki bo'lishini isbotlagan bo'lsa, N. V. Ashurova til tizimidagi ortiqchalikni bartaraf etish, ommaviy muloqot jarayonlarida axborot uzatish tezligini oshirish bevosita sintaktik sathdagi qisqarishlar (korrelyativ tushib qolishlar) bilan muvozanatlashishini jiddiy lisoniy dalillar orqali ochib berdi [14, 23-b.]. Aralash ta'lim muloqotida D. R. Garrison va H. Kanuka oliy ta'lim darslarini transformatsiya qilish va talabalar faolligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatgan bo'lsalar [4, 95-b.], G. Stockwell kompyuter vositachiligidagi til o'rgatish metodikasi amaliyotini o'rganib, uning turli tizimli tillarni o'qitishdagi didaktik xususiyatlarini yoritgan [11, 12-b.]. Ayniqsa, jonli mediadiskurs matnlari tarkibida elliptik konstruksiyalar va tezkor so'z birikmalarining nihoyatda zich joylashishi talabalarda real lisoniy muhitni shakllantirish imkonini beradi. Shuning uchun autentik mediamatnlarning o'ziga xos motivatsion va kommunikativ imkoniyatlarini an'anaviy moslashtirilgan darslik materiallaridan farqli ravishda, yaxlit bir farqlovchi mezonlar modeli ko'rinishida tizimlashtirish lingvodidaktik qiymat kasb etadi:

Jadval 1. Autentik media matnlar va an'anaviy darslik matnlarining qiyosiy-metodik tavsifi

Metodik mezonlar	Autentik media matnlar	An'anaviy darslik matnlari
Lisoniy tabiati	Jonli adaptatsiya qilinmagan, neologizmlar va barqaror birikmalarga boy [11,b.20].	Sun'iy soddalashtirilgan, grammatik qoidalarga moslab qoliplashgan.
Motivatsion ta'siri	Yuqori talabada axborot olish va real dunyoni tushunish ehtiyojini uyg'otadi [6, b.38].	Past yoki o'rtacha, asosan topshiriqni bajarish va baho olishga yo'naltirilgan.
O'zbek tilidagi ma'nosi	So'zma-so'z ko'chirish orqali me'yorlashgan birikma	bevosita leksik o'zlashma bo'lib, yangi lingvistik reallikni ifodalaydi
Lisoniy qisqaruv (ellipsis)	Yuqori darajada,jonli nutq va media talabalariga mos elliptik tuzilmalar faol	Deyarli kuzatilmaydi gaplar grammatik jihatdan to'liq va akademik chiziqli bo'ladi
Kommunikativ yo'nalishi	Talabani erkin fikrlash, bahs-munozara va mustaqil mulohazalarga chorlaydi [14,b.25]	Matndan keying savollarga javob berish va tarjima qilish bilan cheklanadi
Madaniy-ijtimoiy sig'imi	Til egallanayotgan jamiyatning zamonaviy madaniy voqeelikni to'g'ridan- to'g'ri aks ettiradi	Ko'pincha eskirgan va umumlashtirilgan madaniy ma'lumotlarni beradi

Jadval tahlilidan ko‘rinadiki, an’anaviy darsliklardagi matnlarning ko‘p hollarda o‘quv uslubiga moslab sun’iy ravishda soddalashtirilgani real muloqot muhitida talabalarning lisoniy to‘siqlarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Autentik mediamatnlar esa talabalarga til o‘rganilayotgan mamlakatning madaniy, ijtimoiy va lingvistik muhitini sun’iy to‘siqlarsiz his qilish imkonini beradi. Tilshunos olim N. Mahmudov ta’kidlaganidek, til o‘rganish shunchaki mexanik jarayon emas, balki chuqur ruhiy va madaniy ehtiyoj bo‘lganligi sababli, mediamatnlar talabada aynan mana shu ichki ehtiyojni, ya’ni “tilni shunchaki baho olish uchun emas, balki dunyoda nimalar bo‘layotganini tushunish, o‘rganish” motivatsiyasini shakllantiradi hamda o‘quvchida o‘z kuchiga bo‘lgan lisoniy ishonchni keskin oshiradi [17, 8-b.]. Glottodidaktik modellashtirish prinsiplariga tayanadigan bo‘lsak, leksikani mediamatnlar yordamida o‘qitish jarayoni shunchaki tasodifiy mashqlar tizimi emas, balki tarkibiy birliklari o‘zaro qat’iy bog‘langan bosqichma-bosqich tizim asosida tashkil etilishi shart. Bu borada biz tomonimizdan taklif etilayotgan uch bosqichli model matngacha bo‘lgan bosqich, ya’ni:

1. Pre-reading/listening: mavzuni bashorat qilish va tayanch leksika bilan tanishish — matn davridagi bosqich;

2. While-reading/listening: leksik birliklarni kontekstda aniqlash va elliptik tahlil hamda matndan keyingi bosqich;

3. Post-reading/listening: leksikani jonli nutqqa ko‘chirish va bahs-munozara olib borish kabi darajali aloqalarni o‘z ichiga oladi.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini o‘stirish jarayonida vazifalarga asoslangan ta’lim modelining amaliy samaradorligi bevosita darsning ichki lisoniy-metodik arxitekturasini to‘g‘ri modellashtirish bilan belgilanadi. Zamonaviy lingvodidaktikada og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish shunchaki tartibsiz muloqot mashqlari yig‘indisi emas, balki talabaning kognitiv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich faollashtiruvchi, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ierarxik tizim sifatida namoyon bo‘ladi [1, 22-b.]. Til o‘rganuvchining kommunikativ muhitda o‘z fikrini erkin, to‘siqlarsiz va darslik qoliplaridan tashqarida ifoda eta olish layoqatini yuzaga keltirish uchun, eng avvalo, dars tuzilmasini talabalarning ruhiy-lingvistik tabiatiga moslashtirish talab etiladi. Professor N. Mahmudov til va madaniyat mutanosibligi hamda jonli muloqot qonuniyatlarini o‘rganish jarayonida ta’kidlaganidek, talabada nutqiy faollikni yuzaga keltirish uchun lisoniy muhit sun’iy emas, balki shaxsiy kognitiv ehtiyojlarni qondira oladigan hayotiy asosga ega bo‘lishi shart [17, 10-b.]. Aynan mana shu jihat chet tili darslarida chiziqli dars ishlanmalaridan voz kechib, muloqot harakatlarini bosqichma-bosqich va darajali aloqalar zanjiri ko‘rinishida loyihalash zaruriyatini tug‘diradi. Muloqot tizimini to‘g‘ri ketma-ketlikda tashkil etish, ayniqsa, vazifalarga asoslangan diskursda nutqiy ko‘nikmalarning shakllanish dinamikasini nazorat qilish imkonini beradi.

Milliy tilshunoslik maktabining so‘nggi yutuqlari, xususan, olim Jasurbek Ibragimovning mediadiskurs va OAV matnlarining lingvodidaktik potensialiga doir tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, muloqot jarayonining muvaffaqiyati topshiriqning murakkablik darajasini bosqichma-bosqich o‘stirib borish tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir [6, 36-b.]. Agarda dars jarayonida talabaning nutqiy harakatlari oldindan rejalashtirilgan va kognitiv jihatdan asoslangan darajali tizim asosida qurilmasa, talabada lisoniy shok va kommunikativ passivlik yuzaga kelishi muqarrar. Bu borada N. V. Ashurova fikriga ko‘ra, muloqot ishtirokchilari o‘rtasida axborot uzatish tezligini oshirish va til tizimidagi ortiqchalikni qisqartirish (ellipsis) jarayonlari bevosita dars bosqichlarining to‘g‘ri taqsimlanishi va nutqiy vaziyatlarning muvozanatlashuvi natijasida ro‘y beradi. Ushbu lingvistik va metodik qonuniyatlarni umumlashtirgan holda, chet tili darslarida gapirish ko‘nikmasini muvaffaqiyatli rivojlantirishga xizmat qiladigan, talabani tizimli ravishda erkin muloqot maydoniga olib kiruvchi va til iqtisodiyoti muvozanatini saqlaydigan uch bosqichli o‘quv modelini loyihalashtirish glottodidaktik qiymat kasb etadi. Quyida taklif etilayotgan va dars jarayonida amaliy topshiriqlarni izchil taqsimlashga xizmat qiladigan bosqichma-bosqich tizimning konseptual-metodik tuzilishi namoyon bo‘ladi:

Diagramma 1. Leksikani media matnlar asosida o‘qitishning bosqichma-bosqich tizimi .

Quyidagi diagrammaning birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan 1-bosqich: Topshiriqdan oldingi bosqich (Pre-task) talabalarni kommunikativ jarayonga ruhan va lisoniy jihatdan tayyorlash maqsadini ko‘zlaydi. Ushbu bosqichda dars mavzusi ochiladi, kontekstual muammo belgilab beriladi va topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan tayanch leksik minimum faollashtiriladi. Jasurbek Ibragimov o‘zining og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga oid tadqiqotlarida ta’kidlaganidek, topshiriqdan oldingi tayyorgarlik jarayoni talabalarda muloqotga kirishishdan oldingi lisoniy to‘siqlarni 40 foizgacha kamaytirish imkonini beradi [6, 39-b.]. Aynan shu bosqichda o‘qituvchi tomonidan real hayotiy va qiziqarli mediamateriallarning taqdim etilishi talabalarda axborot olishga va uni o‘z guruhdoshlari bilan bo‘lishishga bo‘lgan chuqur motivatsion turtkini yuzaga keltiradi.

Modelning markaziy yadrosini tashkil etuvchi 2-bosqich: Topshiriq davri (Task cycle) bevosita talabalarning mustaqil va interaktiv nutqiy faoliyatini qamrab oladi. Ushbu bosqichda talabalar kichik guruhlarga yoki juftliklarga bo‘lingan holda berilgan loyihani loyihalashtiradilar, keys-stadi muammosini hal qiladilar va guruh nomidan bayonot tayyorlaydilar. Professor D. N. Satimova kibermakon va jonli muloqot tizimlarining mikrotuzilmalarini o‘rganish asnosida, topshiriq bajarilayotgan real vaqt doirasida talabalar nutqiy tashabbusni va lisoniy birliklarni mutlaq sotsiolingvistik vaziyatga moslab ishlatishlarini qayd etadi [11, 24-b.]. Ushbu bosqichda talabalar o‘qituvchining doimiy nazoratisiz, erkin muloqot muhitida bo‘ladilar, bu esa ularga grammatik xatolardan qo‘rqish hissidan xoli bo‘lgan holda fikr ravonligini (fluency) birinchi planga olib chiqish imkonini taqdim etadi.

Vazifalarga asoslangan modelning yakuniy va eng muhim bosqichlaridan biri 3-bosqich: Topshiriqdan keyingi bosqich (Language focus) hisoblanadi. Mazkur bosqichda guruhlarning chiqishlari, tayyorlagan hisobotlari eshitiladi va yo‘l qo‘yilgan lisoniy kamchiliklar tizimli ravishda tahlil qilinadi. N. V. Ashurova topshiriqni bajarish jarayonida axborot uzatish tezligi oshishi natijasida talabalar nutqida tabiiy ravishda sintaktik qisqarishlar (elliptik konstruksiyalar) va til tejamkorligi faollashadi [14, 25-b.]. Olimaning ushbu konseptual qarashiga tayanib aytadigan bo‘lsak, aynan topshiriqdan keyingi bosqichda o‘qituvchi talabalar tomonidan qo‘llanilgan elliptik iboralarni, tezkor so‘z birikmalarini va grammatik shakllarni tahlil qilishi, til iqtisodiyoti bilan lisoniy aniqlik (accuracy) o‘rtasidagi muvozanatni tiklashi lozim. Bu esa talabaning nafaqat ravon, balki o‘zbek va ingliz tillari me’yorlariga mos ravishda to‘g‘ri gapirish ko‘nikmasini ham barqarorlashtiradi.

XULOSA

Xususan, chet tillarini o‘qitishda leksik qatlamni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda autentik mediamatnlarning motivatsion va kommunikativ imkoniyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlarimiz yakunida, bevosita shaxsiy pedagogik kuzatishlarimiz va empirik materiallar tahlili asosida quyidagi konseptual xulosalarga keldik:

Olib borgan tizimli-strukturaviy va metodik tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, autentik mediamatnlar shunchaki yordamchi o‘quv vositasi emas, balki tarkibiy birliklari o‘zaro qat’iy bosqichma-bosqich, jonli muloqot va nutqiy vaziyatlar aloqalari bilan bog‘langan, o‘rganilayotgan tilning eng zamonaviy leksik qatlamini aks ettiruvchi yaxlit lisoniy-didaktik tizimdir. Bizning ilmiy kuzatishlarimizga ko‘ra, autentik mediamatnlarning motivatsion salohiyati an’anaviy darslik matnlaridan tubdan farq qiladi. Mediamatnlar talabada tilni mexanik o‘rganish to‘sig‘ini sindirib, unda real dunyo voqeligini tushunish, dolzarb axborotlarni olish va chet tilida muloqotga kirishishga bo‘lgan chuqur ruhiy-kognitiv ehtiyojni va lisoniy ishonchni shakllantiradi. Izlanishlarimiz jarayonida autentik mediamatnlarning kommunikativ imkoniyatlari bevosita ularning tarkibidagi lisoniy tejamkorlik (nutqiy ellipsis), neologizmlar va maxsus birikmalarning zichligi bilan bog‘liqligini aniqladik. Tadqiqotchi sifatida shuni alohida ta’kidlaymizki, mediamatnlar negizida qurilgan uch bosqichli darajali model (matngacha, matn davrida va matndan keyingi bosqich) talabalarda leksikani shunchaki yodlash emas, balki uni jonli bahs-munozara, disput va muammoli nutqiy vaziyatlarda erkin qo‘llay olish kompetensiyasini

mukammal darajada rivojlantiradi. Kuzatishlarimiz va pedagogik tajribalarimiz natijasida o‘zbek talabalariga leksikani o‘qitishda milliy atamashunoslik tizimimizni me’yorlashtirish va lug‘at boyligini oshirish uchun professional kibermuhit va mediaresurslardan to‘g‘ri foydalanish lozimligini ko‘rdik.

Tadqiqotchi sifatidagi yakuniy ilmiy tavsiyamiz shundan iboratki, ta’lim tizimida an’anaviy darslik konstruksiyalaridan bosqichma-bosqich voz kechib, dars rejalariga zamonaviy mediamatnlarni tizimli integratsiya qilish, ularning konseptual-semantik chegaralarini va uslubiy me’yorlarini to‘g‘ri belgilash chet tillarini o‘qitish sifati va samaradorligini, milliy tilimiz ravonligi va barqarorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allen I. E., Seaman J. *Digital Learning Compass: Distance Education Price and Progress Report.* – Boston: Babson Survey Research Group, 2017. – P. 12–25.
2. Crystal D. *Language and the Internet.* – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 45–68.
3. Dadaboyev H. *O‘zbek terminologiyasi.* – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 84–96.
4. Garrison D. R., Kanuka H. Blended Learning: Uncovering Its Transformative Potential in Higher Education // *The Internet and Higher Education.* – 2004. – Vol. 7, No. 2. – P. 95–105.
5. Herring S. C. Faceted Classification for Computer-Mediated Discourse // *Language@Internet.* – 2007. – Vol. 4, No. 1. – P. 1–20.
6. Ibragimov J. OAV matnlari diskursining lingvopragmatik va lingvodidaktik xususiyatlari // *Chet tillarini o‘qitishning dolzarb muammolari.* – Toshkent, 2024. – № 2. – B. 34–42.
7. Moore M. G., Kearsley G. *Distance Education: A Systems View of Online Learning.* – 3rd ed. – Boston: Cengage Learning, 2011. – P. 32–54.
8. Rosenberg M. J. *E-Learning: Strategies for Delivering Knowledge in the Digital Age.* – New York: McGraw-Hill, 2001. – P. 18–29.
9. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning.* – 2005. – Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.
10. Sodiqov Z. O‘zbek tili internet diskursining shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlari // *O‘zbek tili va adabiyoti.* – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 42–49.
11. Satimova D. N. *Lisoniy substandartning turli diskurslardagi pragmatik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik tahlili: filol. fan. dokt. (DSc) ... diss.* – Andijon, 2025. – B. 18–20.
12. Graham C. R. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions // *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs.* – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. – P. 3–21.
13. Beatty B. J. *Hybrid-Flexible Course Design: Implementing Student-Directed Hybrid Classes.* – EdTech Books, 2019. – P. 104–118.
14. Ashurova N. V. Til iqtisodiyoti tamoyilining lisoniy va pragmatik xususiyatlari // *Filologiya masalalari.* – Toshkent, 2024. – № 4. – B. 20–28.
15. Yusupov O. Chog‘ishtirma tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari // *Xorijiy filologiya.* – Samarqand, 2022. – № 2. – B. 15–23.
16. Widdowson H. G. *Discourse Analysis.* – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 33–51.
17. Mahmudov N. Til va madaniyat mutanosibligi masalalari // *O‘zbek tili va adabiyoti.* – Toshkent, 2018. – № 1. – B. 8–16.